

“PRESENT PERFECT” ZAMONINING TUZILISHI VA XUSUSIYATLARI

Ismonaliyev Jamoliddin Qo'ldashaliyevich

Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilidagi Present Perfect zamonining morfologik va semantik xususiyatlari ochib beriladi. Shuningdek, bu zamonning o'ziga xos xususiyatlariga urg'u berilib, o'tgan oddiy zamon bilan qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: fe'l, zamon, sifatdosh, ravish, nutq vaqti, hodisa vaqti, referens vaqti

Ingliz tilining fe'l zamonlari tizimida hozirgi zamonlar turkumining bir bo'lagi sifatida tasniflanadigan *hozirgi tugallangan oddiy* zamonning (Present perfect tense) turli tizimli tillarda, masalan o'zbek tilida mos keluvchi ekvivalenti mavjud emasligi ingliz tilidagi bu fe'l zamonini o'rganishda murakkablik tug'diradi. *Hozirgi tugallangan oddiy* zamonda ish-harakatining nutq paytidan avval sodir bo'lishi bu zamonnini *o'tgan oddiy* (Past simple) zamonga yaqin qilib qo'yadi. Shu tufayli ham ingliz tilshunosligining aksariyat manbalarida *o'tgan oddiy zamon* tadqiq qilingan vaziyatlarda, unga parallel ravishda *hozirgi tugallangan oddiy* (Present perfect simple) zamonning farqli xususiyatlari tahlil qilib beriladi. Biz bu ishimizda *Hozirgi tugallangan oddiy* (Present perfect simple) zamonning O'tgan oddiy zamon (Past simple) bilan nozik chegaralariga, muhim farqlarigagina e'tibor qaratamiz.

Hozirgi tugallangan oddiy zamon (Present perfect simple tense) have ko'makchisining (Auxiliary verb) hozirgi zamon shakllari (have, has) va o'tgan zamon sifatdoshining (Past participle) birga qo'llanishi asosida yasaladi.

Subject(ega)	have/has (not)	verb (past participle)	Ikkinchi darajali bo'laklar
I We You They	have (not)	left eaten arrived	today recently this morning
He She It	has (not)		

Hozirgi tugallangan oddiy (Present perfect simple) zamondagi ish-harakati nutq paytidan oldin sodir bo'lsa-da, bu zamon har doim hozir haqida ma'lumot berib turadi. Bu zamonning hozirga bog'lab turuvchi asosiy jihati ish-harakatining natijasiga urg'u berilishida va aynan ish-harakatining natijasi uni hozirga bog'lab turadi:





I washed the car. (Men mashinani yuvdim.) Bu misolda o'tmishda mashina yuvilgani haqida ma'lumot mavjud. Mashinaning hozirgi holati haqida ma'lumot mavjud emas.

I have washed the car. (Men mashinani yuvib qo'ydim.) Bu misolda mashina yaqin o'tmishda yuvilganligi va uni hozir toza ekanligi haqida ma'lumot mavjud, ya'ni bu gap orqali ish-harakatining natijasiga urg'u berilmoqda.


Hozirgi tugallangan oddiy zamonda ish-harakati o'tmishda sodir bo'lsa-da, uni sodir bo'lgan vaqti takidlanmaydi va bu fe'l zamoni bilan o'tgan zamon payt ravishlarini, masalan *yesterday, two days ago, last morning...*, qo'llab bo'lmaydi.

Hozirgi tugallangan oddiy zamon (Present perfect tense) murakkab izoh talab qiladigan fe'l zamonlaridan biri bo'lib, uni anglashda nemis faylasufi, mantiqshunos va fan falsafasi bo'yicha yetakchi olimlardan biri bo'lgan Gans Rayxenbaxning zamonlarga oid nazariyalariga asoslanishni lozim topdik [4,287-288].

Rayxenbax nazariyasiga asoslanadigan bo'lsak, hozirgi tugallangan oddiy zamonda (Present perfect simple) *nutq vaqti [S]* va *referens vaqti [R]* davr chizig'ida bir nuqtani egallaydi hamda *hodisa vaqti [E]* oldingi positsiyani egallaydi.


"I hope, my dear," said Mr. Bennet to his wife, as they were at breakfast the next morning, "that you have ordered a good dinner today, because I have reason to expect an addition to our family party." (Jane Austen. *Pride and prejudice.*)

Yuqoridagi misoldagi *you have ordered a good dinner today* jumlasini hozirgi tugallangan zamonda keltirilgan. Ushbu misol quyidagicha chizma asosida ko'rsatilishi mumkin:



Shuningdek, *Hozirgi tugallangan oddiy (Present perfect simple)* zamonning temporal funksiyasi ham mavjud. Uning bu xususiyati boshqa vazifasini ifodalab beradi. Bunda holatni ifodalovchi fe'llar ishtirok etadi va hodisa davomligini kuzatish mumkin.

In my younger and more vulnerable years my father gave me some advice that I've been turning over in my mind ever since. 'Whenever you feel like criticizing any one,' he told me, 'just remember that all the people in this world haven't had the advantages that you've had.' (Scott Fitzgerald, *The Great Gatsby.*)





Bu rasmdan ko‘rishimiz mumkunki, holat ifodalanganda hodisa payti [E] to hozirgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi, alohida bir nuqtani emas. Bu gapda “*the advantages that you’ve had*” jumlasidan *ustunliklarga hozirga qadar ega* bo‘lganini tushunamiz.

Xulosa qilib aytganda, Present Perfect zamoni murakkab temporal xususiyatlarga ega. Turli tizimli tillarda, xususan, o‘zbek tilida bunday zamonning mavjud emasligi o‘rganuvchilar uchun uni o‘rganishda sezilarli qiyinchilik tug‘diradi. Umid qilamizki, bu ishimiz ushbu zamoni anglashda samarali hizmat ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G‘apporov M., Qosimova R. Ingliz tili grammatikasi. –Toshkent: Turon-Iqbol, 2010.
2. Бўронов Ж., Ҳошимов Ў., Исмагуллаев Ҳ. Инглиз тили грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974.
3. Malcolm Mann, Steve Taylore-Knowles. Destination B1:Grammar and vocabulary. – Oxford: Macmillan Publishers Limited, 2007.
4. Gans Rayxenbah. Elements of symbolic logic. –New York: The Macmillan Company, 1947–p.287-288

